



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ning
20__-20__-o'quv yilida 11-sinflar
uchun ona tili fanidan II chorak

DARS
ISHLANMALAR

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 11-sinf ona tili fanidan II chorak taqvimiy mavzu rejasi

| № | Mavzu nomi | Soat | Sana | Izoh |
|-----|--------------------------------------------------------------|------|------|------|
| 1. | Nutqning boyligini ta’minlovchi vositalar | 1 | | |
| 2. | Nutqning jo‘yaliligi | 1 | | |
| 3. | Jo‘yalilik va uslublar | 1 | | |
| 4. | Mustahkamlash | 1 | | |
| 5. | Xato va kamchiliklar ustida ishlash | 1 | | |
| 6. | Nutqning ifodaliligi | 1 | | |
| 7. | Ifodalilik va ibora | 1 | | |
| 8. | Ifodalilik va ko‘chimlar | 1 | | |
| 9. | 2-BSB. Savol va topshiriqlar ustida ishlash (50 ball) | 1 | | |
| 10. | Ifodalilik va kinoya | 1 | | |
| 11. | Ifodalilik va o‘xshatishlar | 1 | | |
| 12. | Mustahkamlash | 1 | | |
| 13. | 2-CHSB (40ball) | 1 | | |
| 14. | Nutq madaniyati va nutq texnikasi | 1 | | |

| | | | |
|--------------|--|--|--|
| Sana: | | | |
| Sinf: | | | |

Mavzu: Nutqning boyligini ta'minlovchi vositalar

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilardagi nutqiy kompetensiyani, ya'ni tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish va nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish)ni har bir darsda amaliy qo'llash va o'quvchida bunga nisbatan ko'nikma shakllantirish, berilgan nutqiy mavzularga oid matnlar, o'quvchini mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan mashqlar, savol va topshiriqlar, nutqiy mavzular mazmuniga mos rasm va grammatik mavzular bo'yicha tushuncha berish.

Tarbiyaviy: fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishiga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish, o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtirilgan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, talaffuz va imlo me'yorlariga oid tushunchalarni) rivojlantirish, tilning keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: o'qish va mehnat jarayonida o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda fikrini mustaqil ravishda ifoda etadigan, og'zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo'lgan, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgaralar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish.

FK-fanga oid kompetensiyalar

FK1- nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozish)

FK2- lingvistik kompetensiya (uslubiyatga oid)

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, takrorlash va umumlashtirish darsi, amaliy mashg'ulot darsimunozarali (interfaol) dars.

Dars uslubi: aqliy hujum, an'anaviy uslub, tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: an'anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

| № | Bo'limlar | Vahti |
|-------------|---------------------------------------------------|------------------|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:


65-mashqqa „Audionutq“ metodini tatbiq etish tavsiya qilinadi.

Bajarish jarayonida *tinglab tushunish* va *gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

1. Bir mahal tungi osmondagi bulutlar supurilib, ozod-ozod to‘lin oy samoda nur sochdi. Bir **malak bor edi, kelin bo‘ldi**, bir **jayron bor edi**, qafasga tushdi, bir **qiz bor edi**, turmush ostonasiga shu tariqa qadam qo‘ydi. (*Isajon Sulton*)

Yechim: bu gapda takrorlar (*bor edi*) orqali ma‘no ta‘kidlangan. Ham ma‘no ko‘chishi yuz bergan, ham o‘xshatish hodisasi qo‘llangan.

Sxemada ko‘ramiz:



2. Farzand ko‘rgach, Ra‘no haqiqatan ham gul-gul ochildi. Qizlik go‘zalligi bu tarovat oldida hech nima bo‘lmay qoldi. Gul **edi**, Xudoning qudrati bilan oqi oqqa, qizili qizilga ajraldi. Chechak **edi**, barq urib ochildi. Bulut **edi**, yomg‘irini ayamay to‘kdi. Quyosh **edi**, harorat-la porladi. Oy **edi**, to‘lishdi. Kecha **edi**, bag‘ri yulduzga to‘ldi. Qush **edi**, jo‘shibjo‘shib sayradi. Zilol **edi**, sharqirab oqdi. (*Isajon Sulton*)

Yechim: matnda Ra‘noning onalik baxti tasvirini berishda ta‘kidni kuchaytirish maqsadida takrorlar hamda o‘xshatishning go‘zal namunalari keltirilgan:



Edi to‘liqsiz fe‘lining takrori badiiylikni ta‘minlagan

66-mashq „Intervyu“ metodidan foydalangan holda bajariladi.

1. Matn bilan tanishiladi (*o‘qish, tinglash*).

2. Hozirgi zamon ma‘nosining ifodalanishiga diqqat qilinadi.

3. Grammatik ma‘nodoshlikning boy nutq tuzishdagi ishtiroki yuzasidan mulohaza yuritiladi (*gapirish*).

Yechim: yer haydamoqda, urug‘ sepyapti (*har ikkala til vositasi shaklan va mazmunan hozirgi zamon*); **shimarib olgan** (*shaklan o‘tgan zamon, mazmunan hozirgi zamon*); **yer haydab, ekin ekayotir** (*shaklan va mazmunan hozirgi zamon*); yer haydaydi, xirgoyi qilib qo‘yadi (*har ikkalasi shaklan kelasi zamon, mazmunan hozirgi zamon*).

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: mavzu bo‘yicha nazariy savollarga javob berish, berilgan matndan mavzuga oid misollarni aniqlash va tahlil qilish, mustaqil ravishda 3–4 ta gap tuzib, unda yangi mavzu qoidasini qo‘llash, juftlikda ishlash orqali o‘zaro savol tuzish va javob berish.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

| | | | | |
|--------------|--|--|--|--|
| Sana: | | | | |
| Sinf: | | | | |

Mavzu: Nutqning jo‘yaliligi

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilardagi nutqiy kompetensiyani, ya’ni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish va nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish)ni har bir darsda amaliy qo‘llash va o‘quvchida bunga nisbatan ko‘nikma shakllantirish, berilgan nutqiy mavzularga oid matnlar, o‘quvchini mantiqiy fikrlashga yo‘naltirilgan mashqlar, savol va topshiriqlar, nutqiy mavzular mazmuniga mos rasm va grammatik mavzular bo‘yicha tushuncha berish.

Tarbiyaviy: fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishiga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish, o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtirilgan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, talaffuz va imlo me‘yorlariga oid tushunchalarni) rivojlantirish, tilning keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi: o‘qish va mehnat jarayonida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda fikrini mustaqil ravishda ifoda etadigan, og‘zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo‘lgan, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish.

FK-fanga oid kompetensiyalar

FK1- nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozish)

FK2- lingvistik kompetensiya (uslubiyatga oid)

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, takrorlash va umumlashtirish darsi, amaliy mashg‘ulot darsimunoazarali (interfaol) dars.

Dars uslubi: aqliy hujum, an’anaviy uslub, tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: an’anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

| № | Bo‘limlar | Vaqt |
|-------------|---------------------------------------------------|------------------|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Topshiriqlar:

1. Matnni qayta hikoya qiling.

2. Ajratilgan soʻz va qoʻshimchalarning hozirgi kundagi variantlarini toping va daftaringizga yozing.

Izoh: „Soʻz bir nashʼadur, undan xumor paydo boʻlur“ jumlasida *nashʼa* soʻzi sheʼriyatda *estetik lazzat, huzur, gasht* maʼnosini, *xumor* soʻzi esa *mushtoqlik, zoʻr istak* degan maʼnoni anglatishini hisobga olsak, hikmatdan shunday mazmun chiqadi: soʻz lazzat, huzur bagʻishla gani uchun (odamda) unga mushtoqlik, chanqoqlik paydo boʻladi.

Agar nutq oʻzida barcha kommunikativ sifatlarni mujassam etsa-yu, har jihatdan joʻyali, yaʼni oʻz oʻrnida boʻlmasa, u maqsad manziliga borib yetmaydi. Joʻyalilik yoʻq joyda nutqning boylik, aniqlik, ifodalilik kabi muhim sifatlarning mohiyati yoʻqoladi.

Xalqimiz donoligining bebaho boyligi, oʻzbek soʻzining koʻrki boʻlgan maqol va matallarda ham bu fikr qayta-qayta uqtirilgan: „Soʻzga tushmagan soʻzni aytma, Sozga tushmagan gʻazalni“; „Joʻyali soʻz joʻyasin topar, Joʻyasiz soʻz iyasin (yegasin) topar“; „Joʻyaga tuya ham choʻkadi“; „Oʻrinli soʻzga tuya choʻkadi, Oʻrinsiz soʻzga hamma soʻkadi“. Kimningdir ogʻir kasalligi yoki vafoti haqidagi fikrni ifodalash uchun tuziladigan nutqda ortiqcha chiroylilik, jimjimadorlik, koʻtarinkilik, tantanavorlik boʻlmasligi lozim, aks holda nutq oʻrinli hisoblanmaydi. Umuman, nutqning oʻrinlilik sifatini taʼminlash uchun nutq tuzuvchi nutqiy vaziyatni, oʻzi ifodalamoqchi boʻlgan mazmunni, tinglovchi ning turli xususiyatlarini, muloqotning ijtimoiy-madaniy, axloqiy-estetik jihatlarini yetarli darajada tasavvur etmogʻi lozim.

Sinf toʻrt guruhga boʻlinib, darslikdagi mashqlar guruhlarga tahlil uchun boʻlib beriladi. Maʼlum vaqt ajratiladi. Har bir guruh oʻziga taqsimlangan matn tahlilini taqdimot qilib beradi.

1-guruh tomonidan **71-mashq**da berilgan matn „Dialog“ usulida oʻqiladi. Nutqning joʻyaliligi buzilgan oʻrinlar aniqlanadi (*oʻqish va gapirish*).

Yechim: Oʻzga yurtida shoh boʻlguncha, oʻz yurtida gado boʻl, deganlari haq ekan. (*„Xonadon“ gazetasidan*)

Izoh: suhbatdosh asli Fargʻonada tugʻilgan, biroq Toshkentda yashaydi. Uning tilidan aytilgan maqol Vatandan ayriliqda yashash azobini tortganlarga nisbatan qoʻllanadi. Fargʻona ham, Toshkent ham bir mamlakat hududida joylashgan va bordi-keldida hech qanday monelik tugʻilmaydi. Shuning uchun „Oʻzga yurtida shoh boʻlguncha, oʻz yurtida gado boʻl“ maqoli oʻrinsiz hisoblanadi.

2-guruhga **72-mashq**ni bajarish uchun „Tahrir maktabi“ metodi tavsiya etiladi. Berilgan gaplarda ajratib koʻrsatilgan soʻzlar nutqning joʻyalilik sifatini nima uchun buzayotganligi izohlanadi (*oʻqish va gapirish*).

| T.r. | Berilgan gap | Tahrirlangan gap | Izoh |
|------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Nimalar qil-yapsiz, ona?! – oʻgʻli yolvoruvchan ovoz bilan yaltoqlanib Tazkiraning oldida tiz choʻkkan. (<i>M. Nasibullin</i>) | Nimalar qilyapsiz, ona?! – oʻgʻli yolvoruvchan ovoz bilan Tazkiraning oldida tiz choʻkkan. (<i>M. Nasibullin</i>) | <i>Yaltoqlanmoq – la-ganbardorlik, xushomadgoʻylik qilmoq. Yolvoruvchan ovoz birikmasi bilan yaltoqlanib soʻzi birga qoʻllanib, mantiqsizlikni yuzaga keltirgan.</i> |
| 2 | Onamning jahllari battar qoʻzgʻab, shangʻillagan-cha quloq-chakkamga shapaloq tushirdilar. (<i>S. Ravshanov</i>) | Onamning jahllari battar qoʻzgʻab, quloq-chakkamga shapaloq tushirdilar. | <i>Shangʻillamoq – baland ovozda baqirib gapirmoq. Farzandning oʻz onasiga nisbatan bu soʻzni qoʻllashi millatimizga xos emas.</i> |

3-guruh **73-mashq**da berilgan parcha bilan tanishadi. Matnda bola, to‘rtinchi sinf o‘quvchisi tilidan qilingan hikoyada nutqning jo‘yalilik sifatiga salbiy ta‘sir etgan so‘zlar ajratib ko‘rsatilgan. O‘quvchilar ushbu so‘zlarni tavsiflashga harakat qiladilar (*o‘qish va gapirish*).

Yechim: quyida matnda qo‘llanilgan ayrim so‘zlar izohi berilgan:

| | So‘zlar | Izohi |
|---|----------------|------------------------------------------------------------------------|
| 1 | beozor | ozor bermaydigan, dilni og‘ritmaydigan, mu-loyim |
| 2 | dilkash | kishini o‘ziga tortuvchi, suhbatlashsa, zavq, lazzat oladigan |
| 3 | odamoxun | odamgarchilikni biladigan, odamning iz-zat-hurmatini bajo keltiradigan |
| 4 | haytovur | har qalay, nima bo‘lsa ham, qanday bo‘lsa ham |
| 5 | mulla | madrasa ta‘limini olgan shaxs |
| 6 | tamaddi qilmoq | ovqatlanmoq |
| 7 | sipo | kamtar, kamsuqum, oddiy; odmi kiyim |

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: mavzu bo‘yicha nazariy savollarga javob berish, berilgan matndan mavzuga oid misollarni aniqlash va tahlil qilish, mustaqil ravishda 3–4 ta gap tuzib, unda yangi mavzu qoidasini qo‘llash, juftlikda ishlash orqali o‘zaro savol tuzish va javob berish.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

vab-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. vab-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

33 listdan iborat ona tili fanidan 11-sinf II chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislari**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11. O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12. Psixolog hujjatlari**
- 13. Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14. Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15. Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**